

BOLALAR VA O`SMIRLARDAGI GELMINTLAR, GELMINTOZLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Nurislomova Latofatoy Fazliddin qizi

Termiz Davlat Universiteti biologiya „zoologiya“ yo`nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar va o`smirlardagi gelmintlar, gelmintozlar va ularning kelib chiqish sabablari inson hayotining sog'lom turmush tarziga tasiri haqida fikr yuritilgan.

Kalit sozlar: Gelmintlar, gelmintozlar, bolalar va o`smirlardagi gelmintlar, gelmintozlar faunasi, bolalar va o`smirlardagi parazit gelmintlari.

XXI asr zamonaviy texnologiyalar o`shish rivojlanish asri bo`lishi bilan bir qatorda biologik muammolar ham o`shishi kuzatilayotgan davr hisoblanadi. Bunga qaysiki ma`noda insoniyat o`zi sababchidir. Chunki inson aqli rivojlangan sayin kichik tuyulgan aslida esa katta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo`lgan hodisalarga ahamiyati pasaymoqda. Bu esa o`z navbatida katta muammolarga olib keladi. Aynan shunday muammolardan biri bu bolalar va o`smirlardagi gelmintlar, gelmintozlar kasalligidir. Ushbu kasallik bolalarda ko`proq uchrashishini inobatga oladigon bo`lsak dunyo kelajagi yoshlar qo`lida. Yoshlar esa buning uchun sog'lom bo`lishlari shart shundagina rivojlanish bo`ladi. Demak o`z o`zidan ko`rinib turibdiki bu davr muammosidir. Bolalarda bu kasallik kelib chiqish sabablarini o`rganishdan oldin kasallikni o`zi haqida umumiy ma`lumotga ega bo`lishimiz lozim. Hozirgi kunda bolalar orasida ko`p uchraydigan kasalliklardan biri bu - gelmintoz kasalligidir.

Gelmintozlar inson organizmiga parazit chuvalchanglar (gijjalari) kirishi natijasida yuzaga keladi. Chuvalchanglar o`zi yashab turgan vujudagi ozuqalar hisobiga kun ko`radi. Masalan, ular darmondorilar, oqsillar, uglevodlar va mikroelementlarni yutadi, ayrimlari esa qon so`radi. Bugungi kunda bunday zararkunandalarning 250 ga yaqin turi aniqlangan bo`lib, shulardan 9 xili bolalarda uchraydi.

Bolalarning meva-sabzavotlarni yuvmasdan yeyishi, o`yinchoqlar, o`quv qurollarini og`ziga solishi natijasida gijja paydo bo`ladi. Agar kasallik kuzatilsa bolaning qorni og`riydi, asabiylashadi, jizzaki bo`lib qoladi, uyqusida tishlarini g`ichirlatadi.



Orqa chiqaruv a`zosi qichishadi, bola uni qashiyverishi natijasida toshma hosil bo`ladi, teri yuzasi yiringlashi mumkin. Parazit najas chiqish yo`llariga 5 mingdan 150 mingtagacha tuxum qo`yadi. Ular tez rivojlanadi va ichak orqali butun tanaga tarqaladi. Bolalarga

gelmintozlar asosan yuvilmagan meva-sabzavotlar, ko'katlar, bolalar tuvaklari va uy hayvonlari orqali yuqadi.



Aholi, ayniqsa yosh bolalar o'rtasida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish bo'yicha tadbirlarning kuchaytirilishi gelmintoz kasalliklari bilan zararlanish holatlarining minimallashtirilishi va kasallikning bartaraf etilishiga olib keladi., Gelmintlar odam organizmining nafas olish, ovqat hazm qilish, muskul sistemasida, jigar, o't pufagi, taloq, qon, miya, ko'z va boshqa organlarida parazitlik qiladi.



Gijjalarning xili, soni, va qaysi organda parazitlik qilishiga qarab kasallik har xil kechadi. Parazitlar bilan zararlangan odamning vazni kamayadi, qorin sohasida og'riq, ko'ngil aynishi yoki bosh aylanishi, ich ketishi yoki qotishi, jizzakilik paydo bo'ladi. Gelmintozda mehnat qobiliyati pasayadi, bolalarda esa rivojlanishdan orqada qoladi, yaxshi o'smaydi, xotira pasayadi, uyqusi notekis bo'ladi, bolalar injiq bo'ladi. Gijjalar inson organizmiga qaysi yo'l bilan tushadi?

Gijjalarning odamga yuqish yo'llari turli - tuman bo'lib, gijja tuxumlari og'iz orqali, toza yuvilmagan meva - sabzavotlar, iflos qo'llardan, shuningdek najasdan tushishi mumkin. Ayrim gijja lichinkalari odam organizmiga yaxshi pishirilmagan go'sht va baliq mahsulotlarini iste'mol qilganda yuqadi.

Profilaktikasi: Gijja kasalligini oldini olish uchun asosan sanitariya-gigiya qoidalariga rioya qilish, tirnoqlarni o'z vaqtida olish, alohida sochiq tutishi, ko'rpa-to'shak jildlari va ichki kiyim kechaklar dazmollab turilishi kerak.

Shuningdek, ovqatlanishdan oldin, hojatxonaga kirib chiqqandan keyin qo'llarni yaxshilab sovunlab yuvish, xonalarni ozoda tutish, tez-tez tozalovchi va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan yuvib turish lozim. Meva va sabzavotlarni qaynatilgan suvda chayish, suvni qaynatib ichish hamda go'sht va baliq mahsulotlarini yaxshilab pishirib iste'mol qilish maqsadga muvofiqdir.

Gelmintozlar (yunhelmins, helminthos — gijja, qurt) — odam, hayvon va o'simliklarda parazit chuvalchanglar — gelshintlar qo'zg'atadigan kasalliklar. Odamda gijjalarning 150 dan ortiq turi uchraydi. Yashash sharoitlari: iqlim, tuproqning holati, dehqonchilik xususiyatlari va aholining gigiyenik ko'nikmalari darajasiga qarab turli mintaqalarda turli xil gijjalar uchraydi

Asosan gijjalarning 4 sinfi: nematodalar, sestodalar, trematodalar va akantotsefallar parazitlik qiladi. Shunga ko'ra tekshirish chogida topilgan gijjaning sinfiga karab nematodoz, sestodoz, trematodoz, akantotsefalez kabi guruhlariga ajratiladi; har bir guruhga bir necha turdagi gijjalar kiradi. Mas, enterobioz, askaridoz nematodoz guruhiga, ho'kiz solityori, cho'chqa solityori, keng tasmali gijjalar sestodozlar guruhiga mansub. Odam gijjalarning oraliq yoki mutlaq xo'jayini bo'lishi mumkin. Gelmintozlar kechishida o'tkir va surunkali davr farq qilinadi. Olimlar orasida odamda gelmintlarning bo'lishi ma'lum jihatdan uning qrn guruhiga ham bog'lik, degan fikrlar mavjud. O'zbekistonda gelmintozlardan enterobioz, gimenolepidoz va askaridoz ko'proq uchraydi. Gelmintlar odamning nafas olishi, ovqat hazm qilishi, muskul sistemasi, jigar, taloq, qon, miya, ko'z va boshqa a'zolarida parazitlik qiladi. Gijjalarning xili, soni va qaysi a'zoda bo'lishiga qarab kasallik har xil kechadi. Gelmintozlardada odamning vazni hamisha kamayadi, u lanj, injiq bo'lib qoladi, boshi aylanadi va h. k. Gijja ichakda bo'lsa, ich qotadi yoki ich ketadi, ko'ngil ayniydi, ba'zan bemor qayt qiladi, jigarda bo'lsa, ko'z oqi va badan sarg'ayadi, o'pkada bo'lsa, yo'tal tutadi. Gelmintozlarda ko'pincha mehnat qobiliyati pasayadi, bola yaxshi o'smaydi, xotirasi susayadi va h. k. Gijjalarning lichinkalari yoki tuxumlari topilishiga qarab tashhis qo'yiladi. Serologik reaksiyalar (immun fluoressentlash, bevosita gemag-glyutinatsiya reaksiyalari va h. k.)dan foydalanish gelmintozlarni erta aniqlash va vaqtida tashhis qo'yish imkonini beradi.

Gelmintozlarning oddini olish uchun aholi orasida keng tushuntirish ishlari olib borish, pokizalikka rioya qilish muhim. Ayniqsa, yasli-bog'chaga qatnaydigan bolalarning har biriga alohida tuvak bo'lishi va qo'llarini bot-bot sovunlab yuvib turishiga alohida e'tibor berish lozim. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, chala pishirilgan ovqatni iste'mol qilmaslik, ko'kat va mevalarni obdon yuvib ishlatish, xom go'sht to'g'rashga ishlatiladigan taxtakachni pishganiga ishlatmaslik G.ning keskin kamayishiga olib keladi. Ko'katlarni ishlatishdan I soat oldin 3%li osh tuzi eritmasiga solib qo'yib, keyin yaxshilab chayib tashlansa, gijja tuxumlari butkul yo'qoladi. Gijjalarning turiga qarab G.ning davosi har xil. Bemorni davolashda yaxshi naf beradigan dorilar mavjud. Ularni faqat vrach bilan maslahatlashib qo'llash lozim.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin, ya'ni gelmintoz nafaqat alohida a'zo, balki butun organizmning og'ir dardi bo'lib, uning belgilari paydo bo'lganda o'z vaqtida shifokorga murojaat etish zarur

Kasallikni davolagandan ko'ra uning oldini olish muhim hisoblanadi. Gelmintozning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish shart. Har bir odam o'zining shaxsiy gigiyena vositalariga ega bo'lishi lozim. Ovqatlanishdan oldin, hojatxonaga kirib-chiqqach, eshik tutqichlarini ushlagach, tuproq bilan ishlagandan so'ng va bolalar ko'chada o'ynab kelganda qo'lni sovun bilan yaxshilab yuvish lozim. Shuningdek, tirnoqlarni kalta qilib olish zarur. Polizda, bog'da ishlash vaqtida qo'lni og'izga solishdan saqlanish kerak. Ayniqsa, qo'lni og'izga tiqish kabi salbiy odat yuqorida aytganimizdek yosh bolalarga xos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Zikiryayev, A.To'xtayev, I.lazimov N. Sonin "Bialogiya" T. 2014-yil
2. [http\kutubxonachi.uz](http://kutubxonachi.uz)
3. Z.A.Karimova, .B. Xaqberdiyev. N.S.Nadjimova "Umumiy bialogiya" Toshkent 2014-yil